

INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA IMKONIYATLARI O‘ZBEKISTON MISOLIDA

Baxshilloeva Marjona Dilshod qizi

Buxoro Davlat Universiteti Turizm va mehmonxona xo‘jaligi magistranti

Xalimova Nigina Jafarovna

Buxoro Davlat Universiteti turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası katta o‘qituvchisi PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18983451>

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot inklyuziv turizmni rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari va amaliy mexanizmlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ishda raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar, interaktiv xaritalar va universal dizayn tamoyillarini joriy etish orqali nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay turistik muhit yaratish masalalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari inklyuziv turizm xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishi, yangi bozor segmentini shakllantirishi va turizm sohasining raqobatbardoshligini kuchaytirishini ko‘rsatdi. Shuningdek, ushbu yo‘nalish iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlash hamda davlat siyosatini takomillashtirishga xizmat qilishi asoslab berildi.

Tayanch so‘zlar (kalit so‘zlar):

inklyuziv turizm, turizm xizmatlari bozori, raqamli texnologiyalar, mobil ilova, interaktiv xarita, universal dizayn, turizm infratuzilmasi, xizmat ko‘rsatish sifati, raqobatbardoshlik, bozor segmenti, iqtisodiy samaradorlik, innovatsion yondashuv.

Аннотация. Данное исследование посвящено изучению современных направлений и практических механизмов развития инклюзивного туризма. В работе анализируются вопросы создания удобной туристической среды для людей с ограниченными возможностями посредством внедрения цифровых технологий, мобильных приложений, интерактивных карт и принципов универсального дизайна. Результаты исследования показывают, что инклюзивный туризм может повысить качество обслуживания, сформировать новый сегмент рынка и укрепить конкурентоспособность туристической отрасли. Также обосновывается, что это направление способствует обеспечению экономической эффективности и совершенствованию государственной политики.

Ключевые слова: инклюзивный туризм, рынок туристических услуг, цифровые технологии, мобильное приложение, интерактивная карта, универсальный дизайн, туристическая инфраструктура, качество обслуживания, конкурентоспособность, сегмент рынка, экономическая эффективность, инновационный подход.

Annotation. This study is devoted to the study of modern directions and practical mechanisms for the development of inclusive tourism. The work analyzes the issues of creating a convenient tourist environment for people with disabilities through the introduction of digital technologies, mobile applications, interactive maps and the principles of universal design. The results of the study show that inclusive tourism can improve the quality of service, form a new market segment and strengthen the competitiveness of the tourism industry. It is also justified that this direction serves to ensure economic efficiency and improve state policy.

Keywords: inclusive tourism, tourism services market, digital technologies, mobile application, interactive map, universal design, tourism infrastructure, service quality, competitiveness, market segment, economic efficiency, innovative approach.

Hozirgi globallashtayotgan zamonda deyarli barcha davlatlar turizm sohasiga alohida etibor qaratmoqda. O‘z investitsiyalarini turizmning ko‘p tarmoqli sohalariga kirgizishmoqda. Shu bilan birga inklyuziv turizm ham oldingi yillarga qaraganda tobora yaxshilanib keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Inklyuziv turizm deyilganda barcha toifadagi sayyohlar, xususan nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar va maxsus ehtiyojlarga muhtoj bo‘lgan insonlar tushuniladi. Bunday turdagi sayyohlar uchun teng huquqli xizmatlar va qulay sharoitlar yaratish konsepsiyasi muhim strategik yo‘nalishga aylangan. Inklyuziv turizm nafaqat ijtimoiy adolat va inson huquqlarini ta‘minlashga xizmat qiladi, balki milliy iqtisodiyotning barqaror o‘shishiga ham sezilarli hissa qo‘shadi. O‘zbekiston Respublikasida ham turizm sohasi iqtisodiyotning strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Yurtimizda turizm sektorining jadal rivojlanishi orqali inklyuziv turizm tamoyillarini tatbiq etish, mavjud infrastruktura va xizmatlar tizimini takomillashtirish hamda xalqaro standartlarga mos yuqori darajadagi sayyohlik mahsulotlarini

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

yaratish zamon talabiga aylangan. Bugungi kunda inklyuziv sayyohlik xizmatlariga bo‘lgan ehtiyoj iqtisodiy, demografik va ijtimoiy omillar bilan izohlanadi. Chunki nogironligi bo‘lgan shaxslar va boshqa maxsus guruhlar sayohat imkoniyatlarini kengaytirish orqali mamlakat ichki va tashqi turizm bozoriga faol jalb etilmoqda. Yurtimizda inklyuziv turizmni rivojlantirish bo‘yicha turizm infra tuzilmasini modernizatsiya qilish, transport va mexmonxona xizmatlarini xalqaro standartlarga moslashtirish va madaniy meros obyektlarida qulay sharoit yaratish bo‘yicha islohotlar olib borilmoqda. Bunday masalalarni ilgari surish orqali mamlakatimizda ijtimoiy adolatni mustahkamlash, barqaror turizmni rivojlantirish, xalqaro turizm bozorida boshqa davlatlar bilan raqobatdosh bo‘lishlik nazarda tutiladi.

Ushbu taqitotimizda asosan O‘zbekiston Respublikasidagi inklyuziv turizmning rivojlantirish istiqbollari ilgari suriladi. Turizm sohasidagi yutuqlar va kamchiliklar Jahon standartlari bilan solishtirilib xulosa va takliflar beriladi. Shu bilan birga, tadqiqot davomida World Tourism Organization tomonidan ilgari surilgan “Tourism for all” konsepsiyasi asosida inklyuziv turizmni rivojlantirishning ilg‘or modellari tahlil qilinadi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, inklyuziv turizm ham ko‘plab o‘zgarishlar olib borilmoqda. Ushbu tizimda amaliy va ilmiy jihatda nafat O‘zbekistonda balki dunyo bo‘yicha yangiliklar kiritilyapti. Jumladan, inklyuziv turizm raqamli texnologiyalar tadbiq qilinmoqda. Bu orqali mobil ilovalarda, onlayn interaktiv xizmatlarda, raqamli xaritalarda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Xususan Buxoro viloyatida innovatsion texnologiyalar mobil ilovalar orqali nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun interfaol xaritalar yaratish tadqiqotlari olib borildi. Turli xildagi dasturlar ishga tushirildi. Turizm sohasida AR/AV IoT xizmatlarni avtomatlashtirish va raqamli yordam ko‘rsatish imkoniyatlarini yaratmoqda. Bunda virtual qo‘llanma, onlayn bronlash xizmati, electron xizmatlar tushuniladi. Bundan tashqari turizm infratuzilmasini universal dizayn tamoyillariga mos tarzda shakllantirilyapti. Bu orqali O‘zbekiston hududida infrastruktura standartlari qayta ko‘rib chiqilib, xizmatlar tizimi qayta modernizatsiya qilishga kata yordam berdi. Aholi savodxonligini oshirish maqsadida hududlarda ilmiy-amaliy tadbirlar, kanferensiyalar o‘tkazilmoqda. Xususan Buxoro Davlat Universitetida “O‘zbekiston inklyuziv turizm istiqbollari” mavzusida ilmiy amaliy anjuman o‘tkazildi. Qo‘shimcha tarzda InclUz mobil ilovasi ishga tushirilishi ilmiy amaliy yo‘nalish sifatida e‘tirof etilmoqda. Bunday yangiliklar orqali inklyuziv turizm meyoriy emas, balki xizmat ko‘rsatish sifatida qaralmoqda.

Tadqiqotning muhim amaliy ahamiyati shundaki, u turizm sohasida xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga yordam beradi. Xizmat sifati oshsa, mijozlarning qoniqish darajasi ham ortadi. Bu esa turizm tashkilotlarining raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Inklyuziv xizmatlar ko‘rsatadigan mehmonxonalar va turistik firmalar bozorda ustun mavqega ega bo‘ladi. Chunki zamonaviy turizm bozorida qulaylik va xavfsizlik asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari davlat organlari faoliyati uchun ham mamlakatning iqtisodiyoti uchun ham muhim hisoblanadi. Chunki inklyuziv turizmni rivojlantirish bo‘yicha taklif etilgan normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish davomida davlat siyosatini yanada samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Iqtisodiy jihatdan esa, bu soha bozor segmentini shakllantiradi. Turizm xizmatlari hajmi kengayishi orqali daromad oshishiga olib keladi. Buning natijasida yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish ham tadqiqotning amaliy yo‘nalishlaridan biridir. Maxsus ehtiyojli turistlar uchun mobil ilovalar, ovozli yo‘riqnomalar va interaktiv xaritalar ishlab chiqish taklif etiladi. Bunday vositalar turistlarning mustaqil harakatlanish imkoniyatini kengaytiradi. Axborotga erkin kirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa turistik tajribaning sifatini oshiradi. Tadqiqotning yana bir amaliy jihati ta‘lim sohasiga taalluqlidir. Oliy ta‘lim muassasalarida turizm yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun inklyuziv turizm bo‘yicha maxsus o‘quv materiallari zarur. Mazkur ishda ishlab chiqilgan nazariy va amaliy tavsiyalar o‘quv jarayonida foydalanilishi mumkin. Bu esa kelajakdagi mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini oshiradi. Mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyati keng qamrovli hisoblanadi. Turizm infratuzilmasini takomillashtiradi, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirib davlat siyosatini samarali amalga oshirishga ko‘maklashadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari inklyuziv turizmni rivojlantirish O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini tasdiqladi. Mazkur yo‘nalishda tizimli va izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Inklyuziv turizmni rivojlantirish iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish tamoyillariga mos keladi. Inklyuziv turizmni rivojlantirish O‘zbekiston turizm siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim. Mazkur tadqiqot natijalari ushbu jarayonni ilmiy asosda tashkil etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Buhalis, D., & Darcy, S. (2011). Accessible tourism: Concepts and issues. Channel View Publications.

Cooper, C., Fletcher, J., Gilbert, D., & Wanhill, S. (2008). Tourism: Principles and practice (4th ed.). Pearson Education.

Darcy, S., & Dickson, T. (2009). A whole-of-life approach to tourism: The case for accessible tourism experiences. *Journal of Hospitality and Tourism Management*, 16(1), 32–44.

United Nations. (2015). Transforming our world: The 2030 agenda for sustainable development. United Nations.

World Health Organization, & World Bank. (2011). World report on disability. World Health Organization.

World Tourism Organization. (2016). Accessible tourism for all: An opportunity within our reach. UNWTO.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2019). Turizm to‘g‘risidagi Qonun.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2020). Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi Qonun.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). PF-5611-son Farmon: O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.